



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING SIYOSIY-PSIXOLOGIK ISTIQBOLLARI

Mamatqulov Shuxrat Turopovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent

Usmonov Farhod Lapasovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent

Annotatsiya

Maqolada yoshlar siyosiy ongi, fuqarolik faolligi va fuqarolik jamiyatining shakllanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik siyosiy-falsafiy fanlar nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Siyosiy ong va ijtimoiy faollik orasidagi dialektik aloqadorlik ochib beriladi. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadigan qadriyatlar, motivlar va xulq-atvor stereotiplari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston yoshlarining siyosiy va fuqarolik ongi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi hamda ularning faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi mexanizmlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy ong, fuqarolik jamiyati, yoshlar, ijtimoiy faollik, siyosiy ijtimoiylashuv, fuqarolik identiteti, demokratiya, davlat siyosati.

ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Маматкулов Шухрат Туропович

Ташкентский государственный экономический университет, доцент

Усманов Фарход Лапасович

Ташкентский государственный экономический университет, доцент

Аннотация

В статье с философско-политологической точки зрения анализируется взаимосвязь между политическим сознанием молодёжи, гражданской активностью и формированием гражданского общества. Раскрывается диалектическая связь между политическим сознанием и социальной активностью; рассматриваются ценности, мотивы и поведенческие стереотипы, формирующиеся в процессе политической социализации молодёжи. Выявляются факторы, влияющие на формирование политического и гражданского сознания молодёжи Узбекистана, и предлагаются механизмы, служащие укреплению их активной гражданской позиции.

Ключевые слова: политическое сознание, гражданское общество, молодёжь, социальная активность, политическая ижтимоийлашув, гражданская идентичность, демократия, государственная политика, Узбекистан.

POLITICAL AND PSYCHOLOGICAL PROSPECTS FOR INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH

Mamatqulov Shuxrat Turopovich

Tashkent State University of Economics, Associate Professor

Usmonov Farhod Lapasovich

Tashkent State University of Economics, Associate Professor

Abstract

The article examines, from a philosophical-political science perspective, the interconnection between youth political consciousness, civic activity, and the formation of civil society. The dialectical relationship between political consciousness and social activity is revealed. Values, motives and behavioral stereotypes formed during the political socialization of youth are considered. Factors affecting the formation of political and civic consciousness of Uzbekistan's youth are identified, and mechanisms for strengthening their active civic position are proposed.

Keywords: political consciousness, civil society, youth, social activity, political socialization, civic identity, democracy, state policy, Uzbekistan.

Yoshlar ijtimoiy faolligini tadqiq etishda uning siyosiy-psixologik qirralari alohida metodologik ahamiyatga ega. Ijtimoiy faollik nihoyatda keng qamrovli fenomen bo'lib, u nafaqat jamoat

tashkilotlaridagi yoki ko'ngillilik faoliyatidagi ishtirokni, balki keng ma'noda fuqaroviy pozitsiyani ham ifodalaydi. Fuqaroviy pozitsiya esa, o'z navbatida, siyosiy ongning, ya'ni jamiyatning siyosiy hayoti, davlat va fuqaro munosabatlari, huquq va majburiyatlar to'g'risidagi tasavvurlar tizimining mahsulidir. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy voqeligida yoshlar fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim subyekti sifatida e'tirof etiladi. "Yoshlar ertangi kunimizning egalari" tamoyilining davlat siyosatida keng qo'llanishi yoshlar siyosiy ongini va fuqarolik faolligini shakllantirishni strategik masala darajasiga ko'taradi. Shu bois yoshlar siyosiy ongi va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatni falsafiy-nazariy jihatdan tadqiq etish nafaqat ilmiy, balki amaliy zarurat hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlar siyosiy ongini va fuqarolik faolligini o'rganishda tadqiqotchi A. Usmanovanning qarashlari muhim nazariy asos vazifasini o'taydi. U tadqiqotida yoshlar siyosiy faoliyatini "ongli determinant" sifatida ko'rib chiqadi va siyosiy ong, xulq-atvor hamda faollikning uch o'lchovli modelini taklif etadi. Muallifning kuzatuviga ko'ra, yoshlarda siyosiy ong shakllanganda "o'z shaxsining ahamiyatiga intilish" motivi muhim rol o'ynaydi va ayni shu motiv ijtimoiy faollik uchun psixologik drayver vazifasini bajaradi. V.I. Chuprov va Yu.A. Zubok yoshlar ijtimoiy faolligini tahlil qilishda alohida e'tiborni turli sharoitlarda o'zini o'zi boshqarish masalasiga qaratadi. Ularning fikriga ko'ra, mavhumlik sharoiti fuqaroviy institutlarga ishonchni sustlashtiradi va yoshlarni individualistik strategiyalar sari yo'naltiradi [2]. Bu yondashuv fuqarolik jamiyatining nafaqat ijtimoiy, balki psixologik poydevorini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. A. Stradze rus yoshlari misolida ijtimoiy faollikning institutsionallashuvi, ya'ni individual faollikning tashkiliy-siyosiy tuzilmalarda ro'yobga chiqish jarayoni masalasini kengroq ko'lamda tadqiq etgan. U ta'kidlaydiki, ijtimoiy faollik ijtimoiy institutlar tomonidan targ'ib qilinmas ekan, u mahalliy yoki xususiy faoliyat darajasida qolib ketadi [3].

O'zbekistonning o'z tajribasiga murojaat qilsak, tadqiqotimiz yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirish uchun milliy g'oya va davlat mafkurasini mustahkamlash, ma'naviy merosga muhabbatni tarbiyalash va ijtimoiy jarayonlarda yoshlarning ishtirok etishini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini uqtiradi. Ushbu nuqtayi nazar siyosiy ijtimoiylashuvni va fuqarolik tarbiyasini ajratib ko'rmaydigan yaxlit yondashuvni aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda siyosiy fenomenologiya va sotsial-psixologiya metodologiyasiga suyanish bilan birga, dialektik-tanqidiy tahlil usulidan, ijtimoiy-falsafiy sintez metodidan va qiyosiy-tipologik tahlildan foydalanildi. Yoshlar siyosiy ongining o'ziga xos mahalliy modelini ilmiy asoslashda tarixiy-madaniy kontekst nazarga olindi.

Tahlil va natijalar. Siyosiy ong va ijtimoiy faollik o'rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega bo'lib, ikkisi ham bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi. Siyosiy ong taraqqiy topmas ekan, yoshlar ijtimoiy faolligi stixiyali, maqsadsizlik va vaziyatga qarab o'zgaruvchanlik xususiyatlarini saqlab qoladi. Aksincha, ijtimoiy faollik tajribasi shakllanmas ekan, siyosiy ong abstrakt bilish darajasida qoladi, real xulq-atvorga ko'chmaydi. Bu dialektik bog'liqlik "siyosiy ijtimoiylashuv" tushunchasida sintezlanadi. Siyosiy ijtimoiylashuv yoshlarning, avvalo, oila, maktab, tengdoshlar guruhi, OAV va davlat institutlari orqali jamiyatning siyosiy madaniyatini o'zlashtirish jarayonidir. Usmanova A.A. ta'kidlaganidek, "siyosiy ijtimoiylashuv siyosiy tajribani yosh avlodga saqlab berish va uzatishni, siyosiy institutlar, normalar, qadriyatlarning davomiyligini, siyosiy tizim barqarorligini ta'minlaydi" [1]. Biroq siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni mustaqil O'zbekistonda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Davlatning yoshlar siyosati, milliy mafkura, tarix va madaniy merosni ulug'lash tizimi — bularning barchasi yoshlarning siyosiy ongini shakllantirish uchun davlat tomonidan yaratilayotgan ijtimoiy muhitni tashkil etadi. Shu muhitda yoshlar fuqarolik va milliy shaxsiyatini qayta ishlab chiqadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgisi davlat — jamiyat — fuqaro uchligida fuqarolar mustaqil va faol ishtirokchilar rolini o'tashidir. Yoshlar fuqarolik jamiyatida nafaqat manfaatdor tomon, balki tashabbuskor subyekt sifatida namoyon bo'lishi zarur.

A. Usmanovanning tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, O'zbekiston yoshlarining siyosiy hayotga nisbatan befarq emasligi, ularning siyosiy jarayonlarni kuzatishi, vatanparvarlik tuyg'usi va jamoatchilik ishlariga qo'shilishga tayyorligi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. Shu bilan birga, yoshlarning siyosiy institutlar va jarayonlarga real ta'siri cheklangan, ular ko'pincha "kuzatuvchi" yoki "tinglovchi" pozitsiyasida bo'ladi. Bu holatning sabablaridan biri yoshlarning fuqarolik va siyosiy ishtirok mexanizmlarini yaxshi bilmasligi, ikkinchisi yoshlar tashabbuslari samarasi to'g'risidagi skeptik munosabatlar, uchinchisi esa yoshlarni real qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etuvchi platformalarning mavjudligi, ammo ularning amaliy samaradorligi masalasidagi izchillik yo'qligidir. Tahlillarga ko'ra, yoshlar ijtimoiy faolligini siyosiy-psixologik jihatdan mustahkamlashning eng muhim sharti ularning o'zlarini real subyekt, ya'ni jamiyatni o'zgartirishga qodir kuch deb his etishini ta'minlashdir. "Agentlik"

(agency) deb ataluvchi bu holat — shaxsning jamiyatga ta'sir ko'rsatish qudratiga ishonishi yoshlar ijtimoiy faolligining ichki psixologik asosini tashkil etadi.

Bu borada V.I. Lukov quyidagi xulosani ilgari suradi: yoshlarning “o'zini o'zi namoyon qilishi, o'zini o'zi tasdiqlashi, o'zini o'zi belgilashi va o'zini o'zi tarbiyalashi, ko'p hollarda, yoshlar jamoalari doirasida, birgalikdagi faoliyatda ro'y beradi” [5]. Bu nuqtayi nazar yoshlar tashkilotlari va guruhlarini nafaqat ijtimoiylashuv makonlari, balki subyekt sifatida shakllanish omillari deb talqin etishni taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlar siyosiy ongini shakllantirishning o'ziga xos mezon milliy g'oya va mustaqillik mafkurasidir. Milliy g'oya yoshlar uchun fuqarolik shaxsiyatini shakllantiruvchi aksiologik infratuzilma vazifasini bajaradi. Vatanga mehr, davlat taraqqiyotiga shaxsiy hissa qo'shish istagi, milliy birdamlik tuyg'usi — bularning barchasi yoshlar ijtimoiy faolligining qadriyatli asosini tashkil etadi. Shu bois O'zbekistonda yoshlar siyosiy ongini shakllantirish masalasi faqatgina siyosiy-mafkuraviy mulohazalar bilan emas, balki ma'naviy-axloqiy, madaniy va tarixiy tarbiya bilan birgalikda olib boriladi. Bu yondashuv “demokratiya” integratsiyasini ko'zlovchi turli modellardan farq qiladi va O'zbekiston sharoitiga mos alohida sivilizatsion yondashuvni ifodalaydi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishda uchta asosiy xavf mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Birinchisi, jamoat institutlariga ishonchsizlik siyosiy apatiyani keltirib chiqaradi va yoshlarda siyosiy jarayonlarga befarqlik kuzatilishi mumkin. Bu befarqlik, o'z navbatida, ikkinchi xavfni, ya'ni tashqi manipulyatsiya uchun qulay vaziyatni yuzaga keltiradi. Ya'ni siyosiy ongi shakllanmagan, ammo allaqanday noroziligi bor yosh raqamli muhit va ommaviy axborot vositalari orqali osongina yo'naltirilishi mumkin. Agar bu manipulyatsiya ijtimoiy adolatsizlik yoki chetga surib qo'yilganlik hissi bilan qo'shilsa, uchinchi va eng xavfli oqibat — radikallashuv ro'y berishi ehtimoli oshadi. Ushbu zanjirni uzish uchun chora-tadbirlar ham ketma-ket amalga oshirilishi zarur. Birinchi navbatda, tanqidiy tafakkur va siyosiy savodxonlikni rivojlantirish orqali yoshlarni manipulyatsiyaga qarshi immunitet bilan ta'minlash kerak. So'ngra ularga muayyan siyosiy loyihalarda real ishtirok etish imkoni berilsa, apatiya o'rnini mas'uliyat hissi egallaydi. Nihoyat, yoshlar tashabbuslarini tizimli tan olish va rag'batlantirish ularda jamiyatga tegishlilik tuyg'usini mustahkamlaydi hamda radikallashuvning asosiy sabablaridan birini bartaraf etadi.

Xulosa. O'tkazilgan falsafiy-tahliliy tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, siyosiy ong va ijtimoiy faollik yoshlarning fuqaroviy shaxsiyatini shakllantirishda aylanmali dialektik o'zaro bog'liqlikda ish ko'radi. Ong faollikni oydinlashtiradi, faollik esa ongni mustahkamlaydi. Ushbu dialektika fuqarolik jamiyatining yoshlar orasidagi poydevorini tashkil etadi. Ikkinchidan, O'zbekistonda yoshlar siyosiy ongini shakllantirishda milliy g'oya, madaniy meros va demokratik islohotlar uyg'unligiga asoslangan o'ziga xos model shakllanmoqda. Bu model yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvida davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligini taqozo etadi. Uchinchidan, yoshlar subyektligini tan olish, ularni real qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish, tashabbuslarini hurmat qilish va ularning jamiyatda o'z ovozigacha ega bo'lishini ta'minlash fuqarolik faolligini rivojlantirishning bosh sharti hisoblanadi. To'rtinchidan, yoshlar siyosiy apatiyasi, manipulyatsiya va radikalizm xavflarining oldini olish uchun maktab, oliy ta'lim va yoshlar tashkilotlarida tanqidiy fikrlash, siyosiy savodxonlik va fuqarolik mas'uliyati tarbiyasini izchil olib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmanova A.A. Политико-психологические основы формирования социальной активности молодёжи в Узбекистане. — Т.: Mumtoz so'z, 2020. — 192 с.
2. Чупров В.И., Зубок Ю.А. Молодёжь в обществе риска. — М.: Наука, 2001. — 230 с.
3. Страдзе А.З. Социальная активность в российском обществе: структурно-деятельностное измерение: дис. ... д-ра социол. наук. — Саратов, 2013.
4. Mamatqulov Sh. Yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirishning nazariy-amaliy masalalari: fan nomzodi diss. avtoref. — Toshkent, 2021.
5. Луков В.А. Биосоциология молодёжи: теоретико-методологические основания. — М.: Изд-во МГУ, 2013. — 430 с.
6. Ковалева А.И., Луков В.А. Социология молодёжи: теоретические вопросы. — М.: Социум, 1999. — 351 с.
7. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2022.
8. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций. — М.: АСТ, 2003. — 603 с.